

Davlat fuqarolik xizmatchilari uchun navbatdagi "Siyosiy ma'rifat soati" bo'lib o'tdi



Ayni paytda Davlat boshqaruvi akademiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hamda Davlat boshqaruvi akademiyasi hamkorligida tashkil etilgan davlat fuqarolik xizmatchilari uchun siyosiy-ma'rifiy o'quv soati bo'lib o'tdi.

Unda Surxondaryo viloyati, shahar va tuman hokimliklari studiyasidan sektorlar rahbarlari, hokimliklar xodimlari, aloqador boshqarma va ularning hududiy bo'limlari boshliqlari ham ishtirok etdi.

Siyosiy-ma'rifiy soatda spikerlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va davlat boshqaruvi sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati hamda ahamiyatiga to'xtalib o'tdilar.



